

**ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANINI TASHKIL QILISH
(BOSHLANG'ICH SINFLAR MISLOIDA)**

Egamberdiyeva Bonu karimboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Эгамбердыева Бону Керимбай гызы

**Студентка 2 курса Ургенчского государственного педагогического
института.**

Egamberdiyeva Bonu Karimbay qizi

2nd year student of Urgench State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati, an'anaviy dars o'tish usullaridan farqlari, ustunliklari yoritilgan hamda zamonaviy metodlarning turlari, ularning afzalliklari, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, bu metodlarning darslarni yanada samarali, qiziqarli va tushunarli qilishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar zamonaviy metodlar, interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В данной статье освещается значимость использования современных педагогических методов в учебном процессе, их отличия и преимущества по сравнению с традиционными способами преподавания. Также рассматриваются виды современных методов, их достоинства и роль в повышении интереса учащихся к знаниям. Кроме того, подчёркивается, что данные методы способствуют более эффективному, интересному и доступному проведению уроков.

Ключевые слова: современные методы, интерактивные подходы, инновационные технологии, качество образования, педагогический подход.

Annotation: This article highlights the importance of using modern pedagogical methods in the teaching process, as well as their differences and

advantages over traditional teaching methods. It also discusses the types of modern methods, their benefits, and their role in increasing students' interest in learning. In addition, it is emphasized that these methods help make lessons more effective, engaging, and comprehensible.

Keywords: modern methods, interactive approaches, innovative technologies, quality of education, pedagogical approach.

KIRISH. Ta'limga investitsiy – bu kelajakka eng katta sarmoya. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada ta'kidlaganlaridek: “Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning malakasi, o'quv dasturlari, metodikalar va texnologiyalar hal qiluvchi omillardir.” Bugungi kunda ta'lim tizimi zamon bilan hamnafas bo'lishi, yangilanib borishi zarur. Har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashi, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etishi kerak. Zero, zamonaviy metodlar o'qituvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ta'limda innovatsion yondashuvlardan foydalanish – bu nafaqat zamon talabi, balki yosh avlodni raqobatbardosh, bilimli va ongli etib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir[1].

ADABIYOTLAR TAXLILI METODOLOGIYA: Metod deganda voqeyelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o'rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo'nalishidir. Unda ta'lim va tarbiya berish usullari asosiy o'rinda turadi.

- ta'lim-tarbiyaning maqsadi;
- o'qituvchi tanlagan maqsadga yetish usullari;
- o'qituvchi bilan o'quvchi talabalarning hamkorlik qilish yo'llari;
- ta'lim maqsadini aniq o'quv materialida mazmunida ifodalash;
- ta'lim-tarbiya jarayonining (qonun, qonuniyatlar, prinsiplar) mantiqini;
- axborotlar manbasi;
- o'qituvchining mahorati;

- ta'lim-tarbiyajarayoni qatnashchilarining faolligi;

Murakkabligi uchun ham metodni yagona ma'noga ega tarzda ifodalash qiyin. Shu bois metodning mazmun-mohiyatini, sifatlarini soddalashtirilgan variantda ta'riflarda berishga to'g'ri keladi.

Pedagogika amaliyotda, an'anaga muvofiq, o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan, tartibga solingan faoliyat usuli metod deb tushuniladi. Bunda o'qituvchining o'qitish faoliyati usullari bilan o'quvchining o'qish faoliyatining usullari bir-biriga bog'liqligi ta'kidlanadi[2].

MUHOKAMA. Hozirgi kunda har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rib, darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida yaratish, o'quvchilarning hamkorlikda ishlashini, kreativlik, ijodkorlikni, kommunikativlikni hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish davr talabidir. Darslardagi interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni kamaytirishga, ularning mustaqil bilim olishiga, izlanib, intilishiga, dunyoqarashlarining kengayishiga erishish mumkin[4].

Interfaol usullar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Interfaol usullar qo'llangan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarini mustaqil tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga qaratiladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka sabab bo'ladi.

Madaniy markazlarning har birining o'ziga xos vazifasi borligini bilib, masalan, kutubxonaning bilim manbai, teatrning san'at va axloq tarbiyachisi, muzeylarning tarixiy xotirani asrab-avaylovchi muassasasi sifatida faoliyat yuritishini tushundilar.

NATIJALAR. "Ochiq osmon ostidagi muzey" mavzusidagi quyidagi dars ishlanma orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi, avvalo, bu mavzu

orqali bolalarda tabiat va hayvonlarga nisbatan mehr, shafqat hissi, gʻamxoʻrlik qilish odati shakllanadi. Ular hayvonot bogʻi qanday joy ekanligi, u yerda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligini bilib oladilar.

Bu esa ularda ekologik tarbiya va masʼuliyat hissini rivojlantiradi. Dars davomida berilgan topshiriqlar, oʻyinlar, savollar orqali oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashi, guruhlarda ishlash koʻnikmalaririvojlanadi. Xususan, darslarni anʼanaviy oʻqitish tizimidan farqli oʻlaroq interfaol metodlar orqali tashkil etish orqali oʻquvchilardadarsga boʻlgan qiziqishlarini yanada kuchaytirdi.

Anʼanaviy darslarda oʻqituvchi asosiy faol, oʻquvchi esa koʻproq tinglovchi va yozuvchi boʻlgan boʻlsa, bu darsda oʻquvchilar faol ishtirokchiga aylandi, guruhda ishlash, savol – javob, bahs munozara kabi usullar bilan faol qatnashdi. Interfaol matod orqali oʻtilgan dars oʻquvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini taʼminladi. Bunday dars oʻqitish jarayonida sinfdagi past oʻqitilgan oʻquvchilarni ham jonlantirish, ularni darsga boʻlgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Past oʻqitilgan oʻquvchilar odatda anʼanaviy darslarda qiyin mavzularni tushunishda qiynaladilar, faollik koʻrsatmaydilar, oʻz fikrini bildirishdan tortinadilar. Bunday oʻquvchilar bilan ishlashda interfaol metodlar ularni darsga jalb qilish va ularda oʻrganishga ishtiyoq uygʻotish uchun juda samarali hisoblanadi.

XULOSA. Murakkab mavzular oddiy va qiziqarli koʻrinishda beriladi. Masalan, murakkab mavzularni “rol oʻynash”, “klaster”, “blits-soʻrov”, “savol-javobli oʻyinlar” orqali tushuntirish – past oʻqitilgan oʻquvchilar uchun tushunarliroq va yodda qoladigan boʻladi.

Zamonaviy taʼlimda oʻquvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki oʻzlari izlab topadigan, bahs yuritadigan, muhokama qiladigan holatda olsalar, bu bilim chuqurroq, barqarorroq boʻladi. Interfaol metodlar aynan shunday imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Sh.Mirziyayev “Yangi Oʻzbekiston – taraqqiyot yoʻli” Toshkent - 2020

- 2 N.Q. To 'raxo 'jayev, N.A. Ahmedov. "Pedagogika nazariyasi va tarixi"—Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.
- 3 Q.Q.Yuldashev, M.A. Qodirova "Innovatsion pedagog texnologiyalar" —Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.